Matematika

III qism

1




novda
edutainment

Education Alliance Finland
CERTIFIED
PEDAGOGICAL QUALITY

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Butunni topishga doir masalalar

sxema




qisqa shart

I qism – □
II qism – □ } ?

Qismlarni topishga doir masalalar

sxema




qisqa shart

I qism – □
II qism – ? } □

Sonni bir necha birlikka orttirishga doir masalalar

sxema




qisqa shart

I – □
II – ?, □ ta ko‘p

Sonni bir necha birlikka kamaytirishga doir masalalar

sxema




qisqa shart

I – □
II – ?, □ ta kam

Taqqoslashga doir masalalar

sxema



qisqa shart

I – □ } ? ta ko‘p
II – □ } (kam)

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

I. V. Repyova

Matematika
1-sinf
III qism

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 2-nashr

Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi
Ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan



novda
edutainment

Toshkent – 2024

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO'K 51(075.3)
KBK 22.1ya72
R 42

Taqrizchilar:

M. M. Umarova – Toshkent shahridagi 222-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

M. I. Xujayeva – Toshkent shahridagi 142-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Shartli belgilar



Qalam bilan ishlang



Yozma bajaring



Juft bo'lib ishlang



Og'zaki bajaring



O'ylab ko'ring



Uyga vazifa



Ushbu ✓ belgi bilan ajratib ko'rsatilgan topshiriqlar mavzuni tushunish uchun zarur. Bu topshiriqlar sinfda majburiy ko'rib chiqish uchun tavsiya etiladi.

Eslatma: O'lchov birliklaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida kattalik birliklarini qo'llash to'g'risida"gi 10.01.2018-yil 21-son qaroriga muvofiq foydalanildi.

ISBN 978-9943-9706-5-6


© I. V. Repyova
© "Novda Edutainment", 2024

Salom, aziz bolajonlar!

Darslikning uchinchi qismida siz masalalar va ularning yechimlari qanday bo'lishi haqida bilib olasiz. Masalalar turlarini farqlaysiz, ular bilan bog'liq ifodalar tuzasiz. Mantiqiy masalalar bilan ham tanishasiz, ular sizga kundalik hayotda to'g'ri qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Shuningdek, oldinda sizni yangi qiziqarli fan – robototexnika ham kutmoqda!



Tayanch so‘zlar:





Sehrli kvadratni to‘ldiring.

3	8	1
		6
7		


1. Rasmga qarang. Devorga jami nechta medal osib qo‘yilgan? Ifoda tuzing.






Masala – shartga va mos savolga ega bo‘lgan matn.
Masala sharti – masalani yechish uchun berilgan ma’lumotlar.
Masala savoli – nimani topish kerakligi haqidagi ko‘rsatma.
Masalaning yechimi – masalaning sharti bo‘yicha savolga javob topish uchun tuzilgan matematik ifoda.

2. Masalani yechishni o‘rganing.
O‘qituvchi darsga 12 ta rangli va 7 ta oq-qora rasm tayyorladi. O‘qituvchi darsga jami nechta rasm tayyorlagan?



12 + 7 = 19 (rasm)
Javob: 19 ta rasm


3. Masalani 2-topshiriqdagi namunaga muvofiq yeching.
O‘quvchilar 4 ta masala va 12 ta misol yechdilar.
Ular jami nechta topshiriqni bajardilar?



4. Sinfdoshingiz bilan musobaqalashing. Sonli zanjirni kim tezroq to‘ldiradi?



5. Shart bo‘yicha bo‘yang.
Doira va uchburchak orasidagi shaklni moviy rangga.
Kvadratning chap tomonidagi shaklni sariq rangga.
Eng o‘ngdagi shaklni qizil rangga.



6. Hisoblang. Jadvalni to‘ldiring. Bu predmet haqida nimalarni bilasiz?

U $26 + 31$	**T** $68 - 31$	**N** $73 + 14$
B $45 + 54$	**K** $96 - 54$	**O** $86 - 32$

87	54	57	37	99	57	42

7. Qalamdonda 5 ta oddiy va 8 ta rangli qalam bor.
Qalamdonda jami nechta qalam bor?

Tayanch so‘zlar:


masalani yechish rejasi:

1) **berilganlarni ajratish;**
2) **savol tanlash;**
3) **ifoda tuzish;**
4) **javobni yozish.**



Bo‘sh doirachalarni to‘ldiring.

Har bir tomon bo‘ylab joylashgan sonlar yig‘indisi 9 ga teng bo‘lishi kerak.



1. Masalani yeching.



– 37 ta

– 42 ta

Jami ? ta

? ta

planshetlar | telefonlar




Istalgan masalani yechish uchun dastlab reja tuziladi.


2. So‘zni toping. Bu so‘z masalani yechishdagi amallar ketma-ketligini anglatadi.

A	49+(19+1)	M	50+(56–16)
G	37–(45–22)	O	96–(64+22)
I	56+(32–11)	R	32+(33+31)
L	85+(86–74)	T	21+(78–34)


69	97	14	10	96	77	65	90

3. Sxema boshidagi yulduzcha ichiga rangli yulduzchalardagi sonlarni navbat bilan joylashtiring. Strelkalar bo'ylab harakatlanib, amallarni bajaring. Hamma amallar bajarilgandan keyin qanday son hosil bo'ldi? Bu sonni mos katak ichiga yozing.






4. Ichiga algoritm yozilgan shakllarni bo'yang.



5. Zanjirni davom ettiring.



6. Rasm bo'yicha masala tuzing va uni yeching.



46 dona



22 dona

Jami – ?

7. Misollarni yeching.

45 + 23	58 – 51
62 + 31	67 – 24
50 + 18	82 – 40


Tayanch so'zlar:

sodda masalalar uchun sxema





Tushirib qoldirilgan sonlarni yozing.



1. Har bir misollar juftligidagi qonuniyatni aniqlang. Ularning qiymatini hisoblang.

23 + 6	45 + 52	17 + 21
26 + 3	42 + 55	11 + 27


Masalani yechish rejasi ham algoritmdir.

Berilganlarni aniqlash → **Masalaga savol tanlash** → **Ifoda tuzish** → **Uning qiymatini hisoblash** → **Javobini yozish**

2. Maktabga 88 ta yangi darslik olib kelinishi kerak edi. Ulardan 30 tasi keltirildi. Yana nechta kitob keltirilishi kerak?



3. Sayohatga borish uchun 36 ta chipta sotib olindi. Ulardan 24 tasi tarqatildi. Tarqatiladigan yana nechta chipta qoldi?



4. Taqqoslang.

$59 \square 91$	$20+34 \square 44$	$25+70 \square 70+23$
$23 \square 6$	$17+22 \square 40$	$33+66 \square 22+77$

5. Xatjildlar ustiga yozilgan ifodalar qiymatini hisoblang. Har bir xatjildni mos pochta qutisi bilan tutashtiring.

$(16+43)-27$


$45+(95-84)$




$(36-24)+72$

$(32+47)-61$

6. Algoritmni aniqlang va bo‘sh kataklarni to‘ldiring.





7. Poyezd vagonida 64 ta o‘rindiq mavjud. Vagonda 42 yo‘lovchi ketmoqda. Vagonda nechta bo‘sh o‘rindiq bor?

8. Hisoblang. Ifodalar qiymatini taqqoslang.

Yozuv namunasi:

$52+20 > 13+55$

$72 > 58$

$21 + 4 \square 36 - 11$

$32 + 27 \square 47 + 11$


$86 - 24 \square 31 + 42$

Tayanch so‘zlar:

matn
rasm
qisqa yozuv
sxema



Qaysi soya shaklga tegishli?



1. Sonlarni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi ko‘rinishida yozing.





Masala sharti matn, rasm, qisqa yozuv yoki sxema ko‘rinishida berilishi mumkin.

2. Masala sharti **matn** bilan berilgan.
Abror 12 ta ilmiy-ommabop filmni tomosha qildi. U tomosha qiladigan yana 24 ta film bor. Abrorda jami nechta ilmiy-ommabop film bor?

3. Masala sharti **rasm** bilan berilgan.




Robotlar jami nechta?

4. Masala sharti **qisqa yozuv** bilan berilgan.

Oqidi – 8 bet
Qoldi – 9 bet
] ? bet

5. Masala sharti **sxema** bilan berilgan.



6. Sinfdoshingiz bilan musobaqalashing. Sehrli kvadratni ustun va qatorlaridagi sonlar yig'indisi 15 ga teng bo'ladigan qilib kim tezroq to'ldiradi?

	9	
3		7
8		

8		
	5	
6		2

7. Misollarni yeching. Topilgan javoblarga mos ovallarni bo'yang. Qaysi harflar bo'yalmay qoldi?

26 + 31	73 – 50
59 – 45	81 + 11
62 + 16	89 – 72

T	O	P	Sh	I	R	I	Q
14	92	57	23	37	78	17	76

8. Masalani yeching.


Sardor 2 ta kitob o'qidi. Birinchi kitobda 7 ta, ikkinchi kitobda esa 12 ta hikoya bor. Sardor jami nechta hikoya o'qigan?

Tayanch so'zlar:

butun va qismlar
masalalar yechish
ifodalar



Qaysi qism kvadratga tegishli?





1. Misollarni yeching. Javoblarni **kamayish tartibida** joylashtiring. Ularga mos harflarni yonma-yon yozing, shunda siz odamga o'xshash robotning nomini bilib olasiz.

A 53+41 Đ 40−30 N 97−16

O 28+21 D 20+50 R 93−32

I 14+32 Javob:

2. a) Birinchi robotga nom bering.

b) Ko'rgazmada robotlar to'plagan ballar jadvalga yozilgan. Eng katta umumiy ball to'plagan robot g'olib sanaladi. Musobaqada qaysi robot g'olib bo'ldi?

		 Bibi	 Pinki	 Aybo
1-topshiriq	5	4	5	3
2-topshiriq	3	4	2	5
3-topshiriq	5	2	4	4
Umumiy ball				


3. Agar birinchi robot mashinaga 46 qop, ikkinchisi 42 qop chiqindi yuklasa, mashina necha qop chiqindini shahardan olib chiqadi?



4. Sinfdoshingiz bilan musobaqalashing. Kim birinchi bo'lib o'zining robotini yonayotgan uyga olib o'tadi? Kataklardan shunday yurish kerakki, misollarning birinchi soni oldin kelgan misolning natijasiga teng bo'lsin.

88 – 14	74 + 11		73 + 12	30 + 43
30 + 58	22 + 52	32 + 15	40 + 33	57 – 27
49 – 19	24 + 25	45 – 13	31 + 11	42 + 15
40 + 9	36 – 12	48 + 11	56 – 25	30 + 12
20 + 10	30 + 6	24 – 14	40 + 16	30 + 10

5. Qalamni qog'ozdan uzmagan va chiziqlar ustidan ikki marta yurmagan holda shaklning ustidan chizib chiqing.



6. Masalani yeching.

Shkafda 12 ta o'yinchoq bor edi. Undan 8 ta o'yinchoq olindi. Shkafda nechta o'yinchoq qoldi?

7. Hisoblang.

35 + 60 58 – 23 26 + 22 49 – 14

Tayanch so'zlar:

butun va qismlar
qism + qism = butun



Tushirib qoldirilgan sonlarni yozing.



1. Masalaga doir ifoda tuzing va uning qiymatini hisoblang.

Harbiy dronlar



42 ta



Fuqarolik dronlari

25 ta

? ta dron


2. Masalani yeching.

Birinchi dron – 35 ta
Ikkinchi dron – 42 ta
} ? ta

3. Katta dronlar 30 kg gacha bo'lgan yuklarni yetkazib bera oladi. Bunday dron ko'tara oladigan yuklarni umumiy chiziq bilan aylanaga oling.



4. Kichik loyiha. Fermer o‘z dalalarini kuzatib turish uchun dron sotib olishni rejalashtirdi. Fermerga eng yaxshi dronni tanlashiga yordam bering.



5. O‘rdakchaning vaznini toping.



6. Hisoblang.

34 + 11	47 + 21	23 + 35
53 − 11	18 − 16	98 − 56

7. Masalani yeching.


Dron bir oyda 14 ta katta va 32 ta kichik jo‘natmani manziliga yetkazib berdi. Dron nechta jo‘natmani manziliga yetkazib bergan?

Tayanch so'zlar:

butun va qismlar
qism + qism = butun



Rasmni qayta chizing.



1. Hisoblang. Ortiqcha misolni toping.

6 + 9 | 1 + 14 | 3 + 12 | 8 + 7 | 5 + 10 | 2 + 12 | 11 + 4

2. Shartni to'ldiring. Masalani yeching.

Uy ishlariga yordam beruvchi robotni yaratish ustida 12 nafar muhandis va 8 nafar dasturchi ishladi. Robotni yaratishda jami necha kishi ishtirok etgan?

Muhandis – 12
Dasturchi – 8
? kishi

3. Sxemadan foydalanib, 4 ta o'xshash masala o'ylab toping. Ularga doir ifodalar tuzing va qiymatini hisoblang. Masalalarning umumiyligi va farqi nimada?

Hammasi bo'lib ? ta
Yig'ib olindi 42 ta | Qoldi 14 ta

4. 2, 3, 8, 9 sonlarining hammasidan foydalanib, tenglik tuzing.

5. Eng yaxshi robot-changyutkichni tanlashga yordam bering. Har bir xossasi talab darajasida ekanligiga ahamiyat bering va shu katakni bo‘yang. Qaysi birida bo‘yalgan kataklar ko‘p? Eng yaxshisini qalam bilan aylanaga oling.

	 “Aqlli robot”	 “Uy bekasi roboti”
Chang tortish quvvati	100	85
Ishlash vaqti	2 soat	2 soat
Ovoz chiqarib ishlash darajasi	45	50
Robotning balandligi	6 santimetr	7 santimetr
Kafolat	2 yil	1 yil

6. Qanday qilib yig‘indining qiymatini qulayroq hisoblash mumkinligini o‘ylab toping.

$1+3+5+7+9$

$1+2+3+7+8+9$

7. Masalani yeching.

Robot yasash uchun 22 ta plastik va 36 ta metall qismdan foydalanildi. Jami nechta qismdan foydalanilgan?

8. Amallarni bajaring.

3 o‘nl. 4 birl. + 2 o‘nl. 1 birl.

1 o‘nl. 8 birl. + 6 o‘nl.

5 o‘nl. 6 birl. − 2 o‘nl. 4 birl.

9 o‘nl. 1 birl. − 1 o‘nl.


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI ... 2-UMUMIY O‘RTA TA’LIM

Tayanch so'zlar:

butun va qismlar
qism + qism = butun



Chizishni oxiriga yetkazing.



1. Hisoblang.

7 + 3 = ☐☐	5 + 6 = ☐☐	9 + 4 = ☐☐	7 + 9 = ☐☐
6 + 4 = ☐☐	8 + 7 = ☐☐	5 + 8 = ☐☐	9 + 8 = ☐☐

2. Kasalxonada jami nechta robot ishlayapti? Ifoda tuzing va uning qiymatini hisoblang.




3. Kasalxonaning ikkinchi qavatida bir necha bemor davolanyapti. Ulardan yetti nafari dorilarini oldi. Qolgan to'rt nafar bemorga dorilarni robot olib boradi. Kasalxonaning ikkinchi qavatida necha nafar bemor davolanyapti?

Oldi –
Olmadi –] ? nafar

4. Qo'shni sonlarni yozing.


☐☐, 48, ☐☐ ☐☐, 61, ☐☐ ☐☐, 79, ☐☐

5. Sinfdoshingiz bilan musobaqalashing. Kim robotni yo‘lakdan tezroq olib o‘tdi? Kim to‘g‘ri bajardi?



6. Topshiriq qanday bajarilganini namunadan ko‘ring. Har bir strelkaning ustida qanday son va qanday amal belgisi turishi kerak?

Namuna:



7. Qonuniyatni aniqlang va oxirgi ikkita kvadratni bo‘yang.



8. Masalani yeching.

Robot kasalxonada havoni virus va mikroblardan tozalamoqda. U bir kunda birinchi qavatdagi 22 ta palatani va ikkinchi qavatdagi 24 ta palatani tozaladi. Robot bir kunda jami nechta palatani tozalagan?

9. Yig‘indilarni toping.


30 + 8	60 + 7	90 + 1
50 + 5	20 + 9	80 + 4

Tayanch so‘zlar:

butun va qismlar
butun – qism = qism



Naqshni oxiriga yetkazing.



1. Qanday qism yetishmayotganini aniqlang.





2. Toping:

a) birinchi qo‘shiluvchi 7, ikkinchisi 13 bo‘lsa, yig‘indini;

b) qismlari 6 va 12 sonlaridan iborat bo‘lgan butunni;

d) yig‘indi 13, ikkinchi qo‘shiluvchi 4 bo‘lsa, birinchi qo‘shiluvchini;

e) butun 17 ga, ikkinchi qismi 10 ga teng bo‘lsa, uning birinchi qismini.

3. Masalaga doir ifoda tuzing.

Robototexnika mashg‘uloti uchun 46 ta qism tayyorlandi. Ushbu qismlarning 36 tasidan robot yasaldi. Nechta qism ortib qoldi?

4. So‘roq belgilari ortida yashiringan sonlarni toping, agar

a) 24 ta egri chiziq + ? ta siniq chiziq = 69 ta chiziq bo‘lsa;

b) 17 ta uchburchak + ? ta kvadrat = 79 ta shakl bo‘lsa;


d) 62 ta konus + ? ta silindr = 89 ta hajmli jism bo‘lsa.

5. Bo‘sh katakchalarni to‘ldiring.

40 + □□ = 68	12 + □□ = 46	59 + □ = 60
□□ + 34 = 98	□□ + 36 = 76	□ + 79 = 80

6. Robot qizil doirachadan yashil doirachagacha bosib o‘tgan yo‘lning algoritmini ☑ bilan belgilang.

- ☐ 1→, 3↓, 3←, 3↓, 2→
- ☐ 1→, 3↓, 4→, 2↓, 1→
- ☐ 1→, 2↓, 2→, 4↓, 1→
- ☐ 1→, 2↓, 2→, 1↓, 1→



7. Masalalarga doir ifodalar tuzing va ularni hisoblang.

a) Robototexnika mashg‘uloti 45 minut davom etdi. Uning 20 minuti davomida bolalar videorolik tomosha qilishdi, qolgan vaqtda robot yig‘ishdi. Bolalar qancha vaqt robot yig‘ishgan?


b) Ko‘rgazmaga 49 ta robot qo‘yilgan. Ulardan 15 tasi kichik guruh, qolganlari esa katta guruh bolalari tomonidan yig‘ilgan. Katta guruh bolalari nechta robot yig‘ishgan?

Tayanch so'zlar:

butun va qismlar
butun – qism = qism



Bo'sh sxemani to'ldiring.



1. Jadvalni to'ldiring.

Qo'shiluvchi	13	42		11	98		
Qo'shiluvchi	54		13		1	60	40
Yig'indi		68	57	21		100	40

2. Savollarga javob berish uchun ifodalar yozing.

a) 17 soni hosil bo'lishi uchun 13 sonini necha birlik orttirish kerak?

b) 90 soni hosil bo'lishi uchun 50 soniga qaysi sonni qo'shish kerak?

d) 56 soni hosil bo'lishi uchun 52 sonini necha birlik orttirish kerak?

3. Butunjahon robototexnika kuniga bag'ishlangan bayramda 18 ta to'garak qatnashchisi va ularning ota-onalariga maxsus belgilar tarqatildi. Agar jami 48 ta maxsus belgi tarqatilgan bo'lsa, bayramga nechta ota-ona kelgan?


Qatnashchilar, Ota-onalar

4. Taqvimdan foydalanib, masalani yeching. Aziz Butunjahon robototexnika kuniga bag'ishlangan bayramni nishonlash uchun 17 kun qolganini taqvimga qarab hisobladi. U hisobni qaysi sanadan boshlagan?

	Du.	Se.	Chor.	Pay.	Ju.	Sha.	Yak.
Yanvar			1	2	3	4	5
	6	7	8	9	10	11	12
	13	14	15	16	17	18	19
	20	21	22	23	24	25	26
	27	28	29	30	31		
Fevral						1	2
	3	4	5	6	7	8	9
	10	11	12	13	14	15	16
	17	18	19	20	21	22	23
	24	25	26	27	28	29	




5. Sinfdoshingiz bilan musobaqalashing. Kimning roboti ko'proq detal yig'adi? Labirintda nechta detal qoladi?



6. Noma'lum qismni berilgan reja bo'yicha toping.

Yechish rejasi:



67 + □ = 88 23 + □ = 56

□ + 21 = 47 □ + 30 = 82


7. Robot 30 ta kitob solingan ikkita aravachani tortib ketyapti. Bitta aravachada 10 ta kitob bor. Boshqa aravachada nechta kitob bor?

Tayanch so'zlar:

qism + qism = butun
butun – qism = qism



Naqshni takrorlang.



1. Rasmda amallarni tasvirlang.

6 + 7

○○○○○○○○○○○○○

17 – 8

○○○○○○○○○○○○○○○○○

2. Masalalarga doir ifodalar tuzing va ularni yeching.

Jo'natma 5 kun davomida samolyotda va yana 5 kun poyezdda keltirildi. Jo'natma necha kunda kelgan?

Pochtachi 78 ta xonadonga xatlarni yetkazishi kerak. Agar u 32 ta xonadonga xatlarni yetkazgan bo'lsa, yana nechta xonadon qoldi?

3. Noto'g'ri turgan qutilar ustiga chiziq torting.

Bu yerda 30 dan kichik sonlar yozilgan qutilar turibdi.





Bu yerda 45 dan katta sonlar yozilgan qutilar turibdi.

4. Jadvalni to‘ldiring.

Kamayuvchi	70	50		14	15		32
Ayriluvchi	20		60		7	9	11
Ayirma		30	30	7		9	

5. Rasmda pochtadan uygacha bo‘lgan yo‘l tasvirlangan. Yo‘l ustiga yozilgan sonlar shu oraliq masofani bosib o‘tishga sarflangan vaqtni anglatadi. Pochtachi pochtadan uyiga tezroq yetib borishi uchun qaysi yo‘ldan yurishi kerak? Eng qisqa yo‘lni rangli qalam bilan bo‘yang.



6. Pochta bo‘limida O‘zbekistonga 37 ta jo‘natma yig‘ildi. 23 ta jo‘natma Toshkent shahriga, qolganlari esa O‘zbekistonning boshqa shaharlariga jo‘natildi. O‘zbekistonning boshqa shaharlariga nechta jo‘natma jo‘natildi?

7. Hisoblang.

$82 - 41 - 11$ $\qquad$ $14 + (56 - 15)$

$17 + 32 - 26$ $\qquad$ $73 - (82 - 51)$

12–13-darslar. 1-nazorat ishi. Xatolar ustida ishlash


Tayanch so‘zlar:

... ta ortiq (+)


... ta kam (−)



Qonuniyatni aniqlang.




1. Har bir juftlikdagi rasmlarni taqqoslang. Rasmlarda nima o‘zgardi?



6 + 2 = □


8 − 2 = □



□ + □ = □

□ − □ = □


2. Azizaning 6 ta rangli qalami bor. Umidaning qalamlari esa Azizaning qalamlaridan 4 ta ko‘p. Umidaning nechta rangli qalami bor?



□ + □ = □□


3. Shkafning yuqori tokchasida 7 ta darslik turibdi. Pastki tokchadagi darsliklar soni ustki tokchadagi darsliklardan 4 ta ko‘p. Pastki tokchada nechta darslik bor?

4. Azizaning 6 ta rangli qalami bor. Sardorning qalamlari esa Azizaning qalamlaridan 2 ta kam. Sardorning nechta rangli qalami bor?



□ − □ = □

5. Har bir bo‘sh katakka uning rangiga mos katakdagi sondan 1 ta katta sonni yozing.



6. Kompyuter xonasida stollar ikki qator qilib qo‘yilgan. Chap qatorda 6 ta stol bor. O‘ng qatordagi stollar esa chapdagidan bitta kam. O‘ng qatorda nechta stol bor?

7. Sonlarni 10 taga orttiring.

13	22	38	43	51	72	83

Sonlarni 10 taga kamaytiring.

18	25	37	49	50	63	77

Tayanch so‘zlar:

... ta ortiq (+)


... ta kam (−)



Sonli krossvordni yeching.

28	−	7	=	
−				+
=				=
	+	1	=	24

1. Informatika to‘garagiga 14 nafar bola qatnashadi. O‘g‘il bolalar qizlardan ko‘proq. Mashg‘ulotda necha nafar qiz bola qatnashgan bo‘lishi mumkin?




2. Qanday sonlar haqida so‘z boryapti?

Bu son 52 dan 17 ta ortiq.

Bu son 49 dan 18 ta kam.

Bu son 70 dan 20 ta ortiq.

3. Har bir kompyuter qanday qiymatga ega bo‘ladi?



4. Masalani yechish uchun ifoda tuzing.

Bolalar 10 ta sodda va ulardan 3 ta kam murakkab topshiriqni bajara oldilar. Nechta murakkab topshiriq bajarilgan?

5. Sonlarni **o‘sish tartibida** yozing. Har bir keyingi son qanchaga ortadi?

1, 9, 5, 3, 7.

3, 12, 6, 15, 9.

6. Sonlarni **kamayish tartibida** yozing. Har bir keyingi son qanchaga kamayadi?

7, 5, 6, 4, 3.

5, 20, 25, 15, 10.

7. Matnli xabar jo‘natilayotganda ortiqcha belgilar aralashib ketdi. Shu xabarni o‘qiy olasizmi?

!7A23V9%V61A5?L// >O‘(6Y4L54A--,
9K*E%2Y1>I<5N2! #S68O‘1Y1@L!5A?.

8. Masalani yeching.

“Zukko bolalar va dono qizlar” tanlovida 15 nafar qiz ishtirok etdi. O‘g‘il bolalar soni 4 nafar kam bo‘ldi. Musobaqada necha nafar o‘g‘il bola ishtirok etdi?

9. Hisoblang.

19 – 15 17 – 8 16 – 5 12 – 8

Tayanch so‘zlar:

... ta ortiq (+)

... ta kam (−)



Chizishni oxiriga yetkazing.




1. Masalani berilgan shart bo‘yicha yeching.


Ōğil bolalar – 18 ta doira ←
Qiz bolalar – ?, 3 ta doira kam ┘
Yechilishi:

2. To‘g‘ri to‘rtburchaklarni topshiriq shartiga ko‘ra bo‘yang.

Qizil – 6 ta katakcha ←
Kōk – ?, 10 ta katakcha kōp ┘ ←
Sariq – ?, 10 ta katakcha kōp




3. Har bir kompyuter qanday sonni qabul qiladi?



4. Kataklarni sxema bo‘yicha to‘ldiring.

yuqoriga: -10 chapga: -1
pastga: $+10$ o‘ngga: $+1$



	57			60
66				
				80
86				

				16
22				
				36
	43		45	

51				
			64	
			74	
				85

	46		48	
				69
75				

5. Bo‘sh kvadratga kerakli shaklni chizib, qatorni davom ettiring.



6. Keyingi ikkita sonni yozing.

a) 1, 5, 2, 6, 3, 7, ☐, ☐

b) 10, 90, 11, 89, 12, 88, ☐, ☐

7. Azizaning albomida 24 ta, Madinaning albomida esa undan 4 ta ko‘p surat bor. Madinaning albomida nechta surat bor?

8. Misollarni yeching va yashiringan so‘zni toping. Qanday so‘z hosil bo‘ldi?

E $22-20+3$ **R** $66+2-60$ **P** $49-30-10$

I $14-12+1$ **N** $45-41+6$ **T** $13+14-20$


9	8	3	10	7	5	8

Sxemalar:






Yig'indini toping.



1. Qanday son hosil bo'ladi, agar

a) 72 soni 2 ta birlikka orttirilsa;
b) 34 soni 5 ta o'nlikka orttirilsa;
d) 28 soni 7 ta birlikka kamaytirilsa;
e) 61 soni 3 ta o'nlikka kamaytirilsa?

2. Tengliklarni to'ldiring. "Katta son", "kichik son", "ayirma" so'zlaridan foydalaning.



$k + a = \square$


$a + k = \square$

$K - k = \square$


$K - a = \square$

3. Sxemalarni to'ldiring va noma'lum qiymatlarni toping.


a) Birinchi son 12 ga teng. Ikkinchi son 7 ta ortiq.



b) Birinchi son 46 ga teng. Ikkinchi son 13 ta kam.




4. Gidning surat haqidagi hikoyasi 12 minut vaqtni egallaydi. Shu surat haqidagi videorolik esa 5 minut kam vaqt davom etadi. Videorolik qancha vaqt davom etadi?



5. Bo‘sh katakchalarni namuna bo‘yicha to‘ldiring. Kim tezroq bajardi?

Namuna:



6. Keyingi ifodani yozing va uning qiymatini toping.

1 + 2 | 2 + 3 | 3 + 4 | 4 + 5 | 5 + 6 | _____

7. Tushirib qoldirilgan sonlarni yozing.

8 + □ = 17	80 − □□ = 20	□□ − 43 = 30
□ + 3 = 11	□□ + 10 = 80	40 + □□ = 75


8. Masalani yeching.

Sardorning kundaligida 14 ta to‘rt baho bor, besh baho esa 3 ta ko‘p. Sardorning kundaligida nechta besh baho bor?

Tayanch so‘zlar:


qancha ortiq?

qancha kam?





Qalamni qog‘ozdan uzmagan holda chiziqlar ustidan chizib chiqing.



1. Masalaning yechilishini ko‘rib chiqing. Uni tushuntiring.
Bayramga 1-“A” sinf o‘quvchilari 8 ta, 1-“B” sinf o‘quvchilari esa 6 ta rasm chizishdi.
Qaysi sinf o‘quvchilari ko‘p va qancha ko‘p rasm chizgan?



8 > 6 – 1-“A” sinf ko‘p
8 – 6 = 2 (rasm) – farq



Bir son boshqasidan qancha katta ekanligini bilish uchun katta sondan kichik sonni ayirish kerak.

2. Aziza bilan Madina sharlarni bog‘lash uchun tasmalar qirqishdi. Aziza 7 ta tasma, Madina esa 9 ta tasma qirqdi. Kim ko‘p va qancha ko‘p tasma qirqdi?

Aziza:
Madina:



3. 14-yanvardagi harbiy namoyishda 7 ta tank va 10 ta harbiy mashina ishtirok etdi. Harbiy mashinalar tanklardan nechta ko‘p bo‘lgan?

4. Jadvaldagi sonlarni ikkinchi ustundagi namuna bo‘yicha birinchi ustundagi sonlargacha to‘ldiring.

Namuna:

10 gacha	3 + 7	9	1	5
20 gacha	12 + 8	15	17	19
12 gacha	9 + 3	8	6	1

5. Rasmda harbiy texnika vositalarining har biri nechtadan ekanini sanang. Sonlarni eng kattasidan boshlab eng kichigi tomon strelkalar bilan tutashtiring.



Qaysi qatorda hamma texnika vositalari bir tomonga qarab harakatlanyapti? Bir xil texnika vositalari to‘plamiga ega bo‘lgan ikkita qatorni toping. Qaysi qatorda hamma texnika vositalari har xil?

6. Lola bayram uchun 8 satr, Komila esa 12 satr she’r yodlashi kerak. Kimning she’ri ko‘p va necha satr ko‘p?

7. Hisoblang.

$6 + 12 + 2 - 7$ $\qquad$ $11 - 3 + 5 + 6$


$13 - 6 + 7 - 8$ $\qquad$ $40 + 20 + 30 - 50$

Tayanch so‘zlar:


qancha katta?
qancha kichik?



Qonuniyatni aniqlang.



1. Quyosh atrofida aylanuvchi sayyoralar: Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptunni ko‘zdan kechiring.



Sayyoralarning nomlarini ular o‘lchamining kichrayib borishi tartibida yozing. Nomlarning dastlabki ikkita harfini yozish mumkin.

2. Savollarga javob bering.

Sayyoralarning yo‘ldoshlari soni							
Merkuriy	Venera	Yer	Mars	Yupiter	Saturn	Uran	Neptun
0	0	1	2	79	82	27	14

a) Uranning yo‘ldoshi ko‘pmi yoki Neptunnikimi? Qancha ko‘p?
b) Yupiterning yo‘ldoshi ko‘pmi yoki Marsnikimi? Qancha ko‘p?
d) Qaysi sayyoraning yo‘ldoshi eng ko‘p?
e) Qaysi sayyoralarning yo‘ldoshi yo‘q?

3. Savolga javob berish uchun ifoda tuzing.
To‘g‘ri javoblari uchun birinchi qator 14 ta yulduzcha, ikkinchi qator 19 ta yulduzcha oldi. Ikkinchi qator birinchi qatorga qaraganda qancha ko‘p yulduzcha oldi?

4. Ifodalar tuzing va ularning qiymatini hisoblang.

(53 + 45) ifodaning qiymati 67 sonidan qancha ko‘p?

30 soni (20 + 50) ifodaning qiymatidan qancha kam?

5. Yashiringan so‘zlarni aniqlab yozing va “ortiqcha” so‘zni toping.

	a	b	d	e
1	Q	V	R	O
2	P	A	U	T
3	E	Y	N	SH
4	Y	H	M	I

a1 d2 a4 e1 e3

b1 a3 d3 a3 d1 b2

b3 d2 a2 e4 e2 a3 d1

a4 a3 d1

6. Texnologiya darsida o‘quvchilar sayyoralar maketini yasadilar. 17 nafar o‘quvchi Yerning maketini, 8 nafar o‘quvchi esa Yupiterning maketini yasadi. Yer sayyorasi maketini yasagan o‘quvchilar necha nafar ko‘p?

7. Ifodalarni yozing va ularning qiymatini hisoblang.

a) 11 va 4 sonlari ayirmasi;
b) 8 va 3 sonlari yig‘indisi;
d) 45 va 23 sonlari ayirmasi;
e) 28 va 30 sonlari yig‘indisi.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Tayanch so‘zlar: (−)

I – □
II – □ } ? ta ko‘p (kam)



Bo‘sh kataklarni to‘ldiring.

5	3	1
1	5	
3		5


1. Quyidagi predmetlar nomini ular yorqinligining ortib borishi tartibida ayting.








2. Har bir yulduzlar turkumida nechtadan yulduz bor?




Katta Ayiq | Kichik Ayiq | Jirafa | Kassiopeya | Ajdar

a) Qaysi yulduzlar turkumida yulduzlar eng ko‘p?
b) Ajdar yulduzlar turkumidagi yulduzlar soni Jirafa yulduzlar turkumidagi yulduzlar sonidan qancha ko‘p?
d) Qaysi yulduz turkumlarida yulduzlar soni teng?

3. Toping:

a) 7 sonidan 8 ta ortiq sonni;

b) 16 sonidan 9 ta kam sonni;

d) 70 soni 85 sonidan qancha kam ekanini.

4. Bo‘ri yulduzlar turkumida 70 ta, Kaptar yulduzlar turkumida esa 40 ta yorqin yulduz bor. Bo‘ri yulduzlar turkumidagi yulduzlar Kaptar yulduzlar turkumidagi yulduzlardan nechta ko‘p?

Kaptar -
Bōri - } ? ta yulduz kōp

5. Sinfdoshingiz bilan musobaqalashing. Kim tezroq bajardi? Kim to‘g‘ri bajardi?



6. Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan sayyoralar nomini yozing.



7. Misollarni yeching.

56 + 31	40 + 20	32 + 17
24 − 13	48 − 21	86 − 34

8. Savollarga javob berish uchun sonli ifodalar yozing. Ularning qiymatini hisoblang.


a) 85 soni 71 sonidan nechta ortiq?
b) 60 soni 72 sonidan nechta kam?

Tayanch so‘zlar:

I – □
II – □ } ? ta ko‘p (kam)



Mos sonlarni yozing.



1. Hisoblash natijalarini **o‘sish tartibida** joylashtiring va yashiringan so‘zni toping.

E	E	K	L	O	P	S	T
35 – 5	24 – 10	65 – 22	42 – 21	76 – 15	97 – 12	57 – 17	30 – 20

2. Berilgan qisqa shart bo‘yicha masala tuzing va uni yeching.

Teleskoplar – 45 ta
Xaritalar – 12 ta } ? ta kōp


3. Toping:

a) 26 va 13 sonlari yig‘indisini;

b) 77 va 12 sonlari ayirmasini;

d) 76 soni 88 sonidan qancha kichik ekanini.

4. Sxema bo'yicha masala tuzing. Bu masalaga teskari masala tuzing. Ularning yechimini yozing.



12 − 7 =

5. Taqqoslang.

☆ + 3 □ ☆ + 5 ☾ + 1 □ ☾ − 1 ☼ + 10 □ 10 + ☼

6. Yulduzlarni shunday bo'yangki, sariq yulduzlar qizil yulduzlardan, qizil yulduzlar ko'k yulduzlardan va ko'k yulduzlar yashil yulduzlardan ko'p bo'lsin.



7. Misollarni yeching.

56 + (24 − 12) 37 − (14 + 12)
78 − (45 − 12) 54 + (13 + 21)

8. Masalaga doir qisqa shart yozing va uni yeching.

Yuriy Gagarin 27 yoshida koinotga uchgan. Vladimir Janibekov birinchi marta 37 yoshida koinotga parvoz qilgan. Koinotga birinchi marta uchganda ulardan qaysi birining yoshi katta va necha yosh katta bo'lgan?


V. Janibekov



Y. Gagarin

Tayanch so‘zlar:

murakkab ifodalar
amallar tartibi




Mos sonlarni yozing.




1. Qulay usul bilan hisoblang.

3 + 4 + 6	5 + 18 + 5	73 + 2 + 8
7 + 8 + 3	9 + 13 + 1	69 + 4 + 6

2. Ochiq darsda uch nafar o‘quvchi she’r o‘qishi kerak edi. Birinchi o‘quvchi 3 minut, ikkinchi o‘quvchi 2 minut, uchinchi o‘quvchi 4 minut she’r o‘qidi. Ular jami necha minut she’r o‘qishgan?



3. Kvadrat va doiralar chizishni shunday davom ettiringki, kvadratlar doiralardan 2 ta ortiq, doiralar uchburchaklardan 1 ta kam bo‘lsin.



4. Hisoblang.


$(17 + 21) - 18$ $\qquad$ $(43 - 21) + 57$


$54 - (28 - 27)$ $\qquad$ $31 + (52 - 41)$


5. 16 soni 18 sonidan qancha kichik bo'lsa, 7 sonidan shuncha kichik sonni toping.



6. PAXTA, SODDA va DASTA so'zlaridagi bir xil harflar bir xil shakllar bilan almashtirildi. Har bir so'zga mos rasmni ko'rsating.







7. Astronomiya to'garagi mashg'ulotlarida Akmal 16 ta, Jasur esa 11 ta yulduz nomini yodlab oldi. Kim ko'p va qancha ko'p yulduz nomini biladi?

8. Misollarni yeching va so'zni toping.

A $16 + 23$	**E** $69 - 25$	**I** $18 + 81$
Y $40 - 20$	**L** $17 + 30$	**N** $61 - 40$
P $37 - 13$	**R** $14 + 45$	**T** $28 - 14$


24	47	39	21	44	14	39	59	99	20

Tayanch so'zlar:

to'liqsiz shart
savol



Bo'sh katakni to'ldiring.



1. Matnlarni shunday to'ldiringki, ulardan masala hosil bo'lsin.

Oilaviy albomda
12 ta oq-qora va
45 ta rangli
fotosurat bor.

Hurmat taxtasida
15 nafar o'quvchi va
12 nafar o'qituvchining
fotosurati bor.

2. Rasmlarga qarab, masala shartini to'ldiring.
Maktab binosi ichida ☐ ta, hovlida esa ☐ ta kamera bor.
Maktabda jami nechta kamera bor?






3. Juftliklarni chiziqlar yordamida tutashtiring.

1 sutka	yanvar	1 soat	1 hafta	1 yil
12 oy	24 soat	7 kun	31 kun	60 minut


4. Berilgan shartlar bo'yicha sonli ifodalar yozing va ularning qiymatini hisoblang.

1 ōnl. 3 birl. + 5 ōnl. 4 birl. =
7 ōnl. 8 birl. − 2 ōnl. 1 birl. =
3 ōnl. 9 birl. + 4 ōnl. =
5 ōnl. 6 birl. − 3 birl. =

5. Sinfdoshingiz bilan musobaqalashing. Sonli zanjirni kim tezroq to'ldiradi?



6. Agar shaklga yonidan, yuqoridan, pastdan qaralsa, u qanday ko'rinishlarga ega bo'ladi? Mumkin bo'lgan bir nechta variantni bo'yab ko'rsating.




7. Masalaga doir shunday ikkita savol o'ylab topingki, yechimlari ikkita turli ifoda bo'lsin. Bu masalalarni yeching. Kecha Aziza 23 ta, bugun esa 12 ta fotosurat oldi.

Tayanch so‘zlar:

mantiqiy masalalar
yechishning mumkin bo‘lgan barcha variantlarini tanlash



Yig‘indini toping.




1. Sayrdan oldin o‘quvchilar maktab oshxonasida ovqatlanishdi. Ular 6 ta stolni egallashdi, 1 ta stol esa bo‘sh qoldi. Shu stolning nomeri qanday bo‘lishi mumkin? 6 ta stolni band qilishning nechta usuli bor?



1 2 3 4 5 6 7

2. Aziz 4 ta finjon qo‘yilgan stolga o‘tirdi. U istalgan 2 ta finjonni tanlamoqchi. Mumkin bo‘lgan barcha variantlarni bo‘yang.






3. Sayr davomida har bir o‘quvchiga olmali (O) yoki apelsinli (A) sharbat va go‘shtli (G) yoki kartoshkali (K) somsa berildi. Sharbat va somsalardan ovqatlanishning necha xil variantini tuzish mumkin?

4. O‘quvchilarni avtobusda sayrga olib borishdi. Sayr rahbari sariqdan boshqa istalgan rangdagi avtobusda ketishi mumkin. Rahbarda avtobus tanlashning nechta varianti bor?



5. O‘quvchilar sayrda *A* yalanglikdan *B* yalanglikka o‘tishlari kerak. Barcha mumkin bo‘lgan yo‘llarni yozing.



1→ 4,

6. Misollarni yeching va matematikaning qaysi bo‘limi variantlarni tanlashga doir masalalarni o‘rganishini bilib oling.

A	13+31	B	59−36	N	81−70
I	67−32	K	34+15	T	13+7
O	78+11	M	72−12	R	21+20

49	89	60	23	35	11	44	20	89	41	35	49	44

7. Toshkent haqidagi videorolik 25 minut, Xiva haqidagi videorolik esa undan 5 minut kam vaqt namoyish etiladi. Xiva haqidagi videorolik namoyishi qancha vaqt davom etadi?

8. Misollarni yeching.


7 + 16 + 3	8 + 15 + 2	20 + 2 + 8
19 + 5 + 5	39 + 4 + 6	60 + 7 + 3

Tayanch so‘zlar:

tarkibli masalalar
murakkab ifodalar
amallar tartibi



Yuqoridan ko‘rinishini toping.




1. Hisoblang.

$4+(15-10)$ $\quad$ $40+(65-25)$


$17-(6+4)$ $\quad$ $13+(28-16)$

2. Hammasi bo‘lib nechta tugmacha bor? Ifoda tuzing.




3. Lola qo‘g‘irchog‘iga 12 ta, Komila esa undan 2 ta ko‘p ko‘ylak tikdi. Ikkala qo‘g‘irchoqda jami nechta ko‘ylak bo‘ldi? Ifoda tuzing va uning qiymatini toping.

4. Tugmachalarni guruhlarga ajrating. Tugmachalar qanday alomatlariga ko‘ra guruhlarga ajratildi? Ifodalar yozing.




5. Bir ipni ifodalar qiymati 13 ga teng bo'lgan tugmalardan o'tkazing. Ikkinchi ipni ifodalar qiymati 15 ga teng bo'lgan tugmalardan o'tkazing. Iplarni egri chiziqlar ko'rinishida tasvirlang.



Nechta tugma ipga tizilmagan? Shu tugmalar ostiga yozilgan ifodalar qiymatini toping.

6. Malikaning har xil rangdagi 3 ta lentasi bor. U ikkita lenta bilan sochini o'rmoqchi. Malika lentalarni tanlashda nechta usuldan foydalanadi? Usullarni turli ranglarga bo'yang.



7. Taqqoslang.

70 + 3 □ 30 + 7	43 + 3 □ 43 – 3	24 + 5 □ 23 + 6
50 + 2 □ 20 + 5	16 – 4 □ 16 + 4	62 + 4 □ 63 + 3

8. Texnologiya darsida o'g'il bolalar qizlarga qaraganda 2 ta ko'p shakl yasashdi. Agar qizlar 14 ta shakl yasagan bo'lsa, o'quvchilar jami nechta shakl yasashgan?

Tayanch so‘zlar:

tarkibli masalalar
ketma-ketliklar
mantiqiy masalalar




Tushirib qoldirilgan sonlarni yozing.

		49	
			26
	11		
3	8		

1. To‘g‘ri ketma-ketlik tuzing.



2. Kecha Lolaning tug‘ilgan kuni bo‘ldi. Ertaga juma. Lolaning tug‘ilgan kuni haftaning qaysi kuni bo‘lgan?



3. Har bir qatorga keyingi keladigan ikkita sonni yozing.

a) 1, 2, 3, 4, 5, 6, ☐, ☐
b) 2, 4, 3, 5, 4, 6, ☐, ☐
d) 1, 4, 2, 5, 3, 6, ☐, ☐
e) 4, 2, 5, 3, 6, 4, ☐, ☐

4. Muzqaymoq, somsa va shokoladning narxlari 5 ming, 10 ming va 12 ming so‘mdan. Agar shokolad muzqaymoqdan qimmat, biroq somsadan arzon bo‘lsa, ulardan har birining narxini toping.


arzon — qimmat

5. Ikki amalli masalani yeching.
Madinada 24 ta, Azizada esa undan 2 ta kam kitob bor. Qizlarda jami nechta kitob bor?

6. To‘g‘ri tenglik hosil bo‘lishi uchun kataklarga + yoki – belgilaridan mosini qo‘ying.

1 □ 9 □ 8 = 2	9 □ 2 □ 3 = 10	3 □ 7 □ 9 □ 1 = 0
10 □ 5 □ 3 = 8	6 □ 2 □ 4 = 4	5 □ 5 □ 8 □ 3 = 5

7. Qonuniyatni aniqlang va tugmalarni bo‘yang.



8. Qonuniyatni aniqlang va davomini to‘rtinchi kvadratda tasvirlang.



9. Aziza 11 ta, Sardor esa undan 3 ta ko‘p topishmoqni topdi. Bolalar jami nechta topishmoqni topishgan?

10. Ketma-ketliklarni daftaringizga ko‘chirib yozing. Qatorlardagi sonlarning o‘zgarishidagi qonuniyatlarni aniqlang va har bir qatorga yana ikkitadan son yozing.

a) 50, 90, 40, 80, 30
b) 30, 90, 20, 80, 10
d) 10, 60, 20, 70, 30
e) 20, 21, 31, 32, 42

27–28-darslar. 2-nazorat ishi. Xatolar ustida ishlash
29-dars. O‘yin-dars

Tayanch so‘zlar:

uzunlik
uzunlik o‘lchovi
santimetr



So‘zni toping.

25314 = OVQAT

31514 = QAVAT

32523 = ?

1. Qadim zamonlarda uzunlikni quyidagicha o‘lchaganlar:







Sizning fikringizcha, nima uchun odamlar hozir bu usullardan foydalanmaydilar?


Partaning uzunligini tirsaklarda o‘lchang.
Daftarning uzunligini duymlarda o‘lchang.

2. O‘z chizg‘ichingizni ko‘rib chiqing. Ikki uzun bo‘linma orasidagi masofa santimetr deyiladi. Sizning chizg‘ichingiz necha santimetrdan iborat?





3. 1 santimetr 2 katakni tashkil etadi. Kesmalarning uzunligini toping.




4. Ushbu o‘quv qurollarining uzunligini o‘lchang.







5. Ushbu predmetlarning uzunligini toping.



6. Maktab darvozasidan gulpushtigacha 32 qadam, gulpushtidan maktab binosigacha esa undan 10 qadam ko‘p. Darvozadan maktab binosigacha jami necha qadam bosib o‘tish kerak?

7. Hisoblang.

55 + 4	96 − 5	56 − 4
77 − 6	42 + 7	36 + 2

8. Bo‘sh katakchalarni to‘ldiring.

□□ − 10 = 8	3 + □□ = 19	17 − □ = 10
□□ + 5 = 16	18 − □□ = 2	19 − □□ = 9

9. Bog‘bon bog‘dan 16 yashik shaftoli, shaftolidan 4 yashik kam nok terib oldi. Bog‘bon jami qancha hosil terib olgan?

Tayanch so‘zlar:

kesma
kesmaning uzunligi
santimetr (cm)




Sehrli kvadratni to‘ldiring.

	5		11
9			20
	6	1	14
18	14	13	

1. Arqonning o‘rtasidan bir bo‘lak kesib olindi. Uni qanday atash mumkin? Qaysi biri uzun: arqonning o‘zimi yoki uning kesib olingan bo‘lagimi?




2. Kesmaning boshi va oxiri nuqtalar bilan belgilanadi. Nuqtalarni lotin alifbosining bosh harflari bilan belgilash mumkin: *A*, *B*, *C*, *D*, *E*, *F*, ... Berilgan chiziqlar orasidan kesmalarni toping va ularni harflar bilan belgilang.





***A* va *B* nuqtalar orasiga necha santimetr joylashishini ko‘rsatuvchi son *AB* kesmaning uzunligi hisoblanadi.**



3. Kesmalarning uzunligini o'lchang va qiymatlarini taqqoslang.


A ☐ cm B

C ☐ cm D

4. Hisoblang.

13 cm + 85 cm	55 cm + 4 cm
67 cm − 24 cm	77 cm − 6 cm
10 cm + 30 cm	40 cm − 20 cm

5. *A* dan *B* gacha bo'lgan yo'lda eng kichik natijaga ega bo'lish uchun qaysi avtomobilni tanlash kerak?



6. Ifodalarni taqqoslang.

14 + 3 ☐ 15 + 5	16 + 2 ☐ 12 + 3	5 + 9 ☐ 4 + 7
6 + 8 ☐ 5 + 7	9 + 3 ☐ 12 − 1	7 + 8 ☐ 16 − 5


7. Qizil qalamning uzunligi 15 cm, ko'k qalamning uzunligi esa 12 cm. Qizil qalam ko'k qalamdan necha santimetr uzun?

Tayanch so‘zlar:

kesmaning uzunligi
kesmaning xossalari
detsimetr (dm)
santimetr (cm)



Rasmning ikkinchi yarmini chizing.





Nisbatan kattaroq predmetlar detsimetr (dm)larda o‘lchanadi.

1 detsimetr 10 santimetrdan iborat.

1 dm = 10 cm

1. Qanday predmetlarni detsimetrlarda, qandaylarini santimetrlarda o‘lchash qulayroq?







2. Gilamdo‘z mo‘jazgina gilamcha to‘qidi. Gilamchaning uzunligini santimetrlar hamda detsimetr va santimetrlarda ifodalang. Bo‘sh katakchalarni to‘ldiring.




☐☐ cm = ☐☐ cm + ☐ cm = ☐ dm ☐ cm


Necha to‘liq detsimetr chiqdi? ☐ dm

3. Sonni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi bilan almashtiring.

29 = □□ + □	57 = □□ + □	72 = □□ + □
86 = □□ + □	93 = □□ + □	45 = □□ + □

4. *AB*, *BC* va *AC* kesmalar uzunligini chizg‘ich bilan o‘lchang. Nimani bilib oldingiz?





Xulosa chiqaring.

$AB + BC =$ ☐ $\quad AC - AB =$ ☐

$BC + AB =$ ☐ $\quad AC - BC =$ ☐

5. Qizil choynakning balandligi ko‘k choynakning balandligidan necha santimetr katta?



6. Uzunligi 8 cm bo‘lgan tasma yordamida matoning chetidan 16 cm uzunlikdagi qismini o‘lchash mumkinmi? 12 cm uzunlikdagi qismini-chi?

7. Hisoblang.

11 dm + 8 dm	15 cm + 12 cm	61 dm + 22 dm
91 dm – 21 dm	67 cm – 34 cm	72 dm – 60 dm


8. Tikuvchi uzunligi 79 m bo‘lgan mato to‘pidan 14 m mato qirqib oldi. To‘pda qolgan matoning uzunligini toping.

Tayanch so‘zlar:

santimetr (cm)
detsimetr (dm)
o‘nliklar
birliklar



Bo‘sh katakchalarni to‘ldiring.



3
1

2	2
2	2

1. Namuna bo‘yicha yozing.


Namuna: 48 = 4 o‘nl. 8 birl.

39 = 9 1 =

26 = 14 =



Detsimetr bilan santimetr orasidagi o‘zaro bog‘lanish



1 dm = 10 cm

2. Bo‘sh katakchalarni to‘ldiring.

1 dm = 10 cm 4 dm = 40 cm 8 dm = 80 cm

30 cm = 3 dm 60 cm = 6 dm 70 cm = 7 dm

3. Uzunliklarni berilgan o‘lchov birliklarida ifodalang.

1 dm 3 cm = 13 cm 12 cm = 1 dm 2 cm

1 dm 5 cm = 15 cm 16 cm = 1 dm 6 cm

4. Bloknotning bo‘yi 2 dm 4 cm, eni esa bo‘yidan 1 dm qisqa. Bloknotning enini santimetrlarda toping.

5. Jadval bo‘yicha savollarga javob bering.

Yoshi	0 oy	6 oy	1 yosh	2 yosh	3 yosh
O‘g‘il bolaning o‘rtacha bo‘yi, cm	52	66	76	87	96
Qiz bolaning o‘rtacha bo‘yi, cm	50	66	74	85	95

a) 2 yoshda o‘g‘il bolaning o‘rtacha bo‘yi ☐ dm ☐ cm;

b) 3 yoshda qiz bolaning o‘rtacha bo‘yi ☐ dm ☐ cm;

d) 1 yoshda o‘g‘il bola qiz boladan ☐ cm ga baland;

e) o‘g‘il bola bilan qiz bolaning bo‘yi necha oyligida bir-biridan farq qilmaydi? ☐

6. Jadvalga qarang. Qonuniyatni aniqlang va bo‘sh katakchalarni to‘ldiring.



14 20 13 17 ☐☐ ☐

7. Bir minutda katta kishining yuragi 70 marta, bolaniki 80 marta uradi. Bolaning yurak urishi qanchaga tezroq?

8. Santimetrlarda ifodalang.


1 dm 4 cm	3 dm 6 cm	2 dm 8 cm
5 dm 1 cm	7 dm 9 cm	9 dm 7 cm

Tayanch so‘zlar:


uzunlik
detsimetr (dm)
santimetr (cm)



Qonuniyat bo‘yicha doiralarga rang bering.



1. Ushbu shakllarning tomonlari uzunliklarini o‘lchang. Ularda qanday umumiylik bor? Ular nimasi bilan farq qiladi?



☐ cm

☐ cm



☐ cm

2. Ushbu burama mixlarning uzunligini o‘lchang. Ulardan qaysi biri uzun? Qancha uzun?



☐ cm



☐ cm

3. Oldin barcha **yaxlit** sonlarni, keyin **yaxlit bo‘lmagan** sonlarni **o‘sish tartibida** yozib chiqing. Mos harflardan qanday so‘zlar hosil bo‘ldi? Ularni nima birlashtiryapti?

40	30	90	71	70	20	10	60	73	83	79	81	75	77
U	R	I	B	CH	U	Q	V	O‘	I	Q	CH	Y	O


Yaxlit: ☐ ☐ ☐ ☐ ☐ ☐ ☐

Yaxlit bo‘lmagan: ☐ ☐ ☐ ☐ ☐ ☐ ☐


4. Bo‘sh katakchalarni to‘ldiring. Nimani bilib oldingiz?

3 o‘nl. 4 birl. = □□ birl.	3 dm 4 cm = □□ cm
5 o‘nl. 2 birl. = □□ birl.	5 dm 2 cm = □□ cm
6 o‘nl. 2 birl. = □□ birl.	6 dm 2 cm = □□ cm

5. Bo‘yoqchilar maktabning 49 ta xonasini bo‘yashlari kerak. Ular birinchi kun maktabning 15 ta xonasini, ikkinchi kun 14 ta xonasini bo‘yashdi. Yana nechta xona bo‘yalishi kerak?



6. Qalamni qog‘ozdan uzmagan va chiziqlar ustidan ikki marta yurmagan holda shaklning ustidan chizib chiqing.



7. Qulay usul bilan hisoblang.

3 + 39 + 7	(9 + 18) + 1
4 + 28 + 6	5 + (17 + 5)

8. Birinchi kesmaning uzunligi 4 cm, ikkinchi kesmaning uzunligi esa undan 7 cm uzun. Ikkinchi kesmaning uzunligini toping. Shu kesmalarni chizing.


www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Tayanch so‘zlar:


massa
kilogramm (kg)



Yuqoridan ko‘rinishini toping.



1. Nima og‘ir? Bitta qulupnaymi yoki bitta olmami?
Bitta bananmi yoki bitta shaftolimi?
Bitta limonmi yoki bitta olchami?






Predmetlarning massalari kilogrammlarda o‘lchanadi.
Bir kilogramm – 1 kg

2. Supermarketdan 5 kg sabzavot, 5 kg meva va 1 kg un sotib olindi. Xaridning umumiy massasi qanday?

3. Jismning massasi tarozi yordamida o‘lchanadi. Sizning fikringizcha, massani qaysi tarozilarda o‘lchash qulayroq? Nima uchun?




4. Tarvuzning massasini toping.



5. Ifodalarni taqqoslang.

$16 + 22 \square 34 + 5$	$47 + (28 - 26) \square (85 - 32) + 5$
$48 - 5 \square 86 - 42$	$18 + (32 - 21) \square 15 + (57 - 43)$

6. Qonuniyatni aniqlang va zanjirni davom ettiring.



7. Hisoblang.

54 + 3	40 + 20	69 – 5
47 – 4	50 + 30	23 + 3
80 – 50	70 – 50	85 – 2

8. Berilgan ifodalardan nimani bilib olish mumkin?
Bu ifodalarga doir masalalar tuzing va ularni yeching.



5 kg + 6 kg


6 kg – 5 kg

Tayanch so‘zlar:

massa
kilogramm (kg)



Rasmning ikkinchi yarmini chizing.



1. Kichik tegirmonda bir marta yanchganda 3 kilogramm bug‘doy yanchish mumkin. Ikki, uch va besh marta yanchganda-chi? Sxemada ko‘rsating. Uchtalab sanang.



2. Qopdan 8 kg un olingandan so‘ng, qopda 6 kg un qoldi. Dastlab qopda necha kilogramm un bo‘lgan?

Bor edi –
Olindi –
Qoldi –

3. Birinchi qopda 30 kg, ikkinchi qopda esa birinchi qopdagidan 2 kg ortiq bug‘doy bor. Ikkinchi qopda necha kilogramm bug‘doy bor?

4. Xaridning umumiy massasini toping.


4 kg


5 kg


3 kg

5. Ifodalarning qiymatini toping. Nimani bilib oldingiz?

56 kg − 12 kg + 10 kg =
56 kg − (12 kg + 10 kg) =
47 kg − 15 kg + 11 kg =
47 kg − (15 kg + 11 kg) =

6. Hisoblang.

12 + (2 + 4)　　23 + (10 + 3)



Rasmdan foydalangan holda ifodalardan istalgan biriga masala tuzing.

7. Bitta yuk mashinasiga 40 qop un ortish mumkin. 90 qop unni tashish uchun nechta mashina kerak bo‘lsa, shuncha mashinani belgilang. Har bir mashinaga necha qop un ortilganini yozing.



8. Noma’lum qismni berilgan reja bo‘yicha toping.

Yechish rejasi:

89 − □ = 54
89 − 54 = 35

77 − □ = 26　　96 − □ = 86
82 − □ = 40　　48 − □ = 32


9. Bir yashik bodringning massasi 36 kg, bir yashik pomidorning massasi esa undan 13 kg kam. Bir yashik pomidorning massasi qanday?

Tayanch so‘zlar:

hajm
litr (l)



Yig‘indini toping.



1. Qaysi idishga ko‘proq suyuqlik sig‘ishini aniqlay olasizmi? Buni qanday isbotlash mumkin?





Hajm litrlarda o‘lchanadi.
Bir litr – 1 l

2. Bochkada 50 l suv bor edi. Unga yana 20 l suv qo‘shildi. Bochkadagi suv qancha bo‘ldi?

3. Har bir idishni mos hajm bilan tutashtiring. Qaroringizni tushuntiring.

100 l 1 l 10 l 2 l




4. Chelakka 9 l, obdastaga chelakdagidan 5 l kam, bankaga esa obdastadagidan 3 l kam suv sig‘adi. Bankaga necha litr suv sig‘adi? Masalani amallar bo‘yicha yeching.





5. Misollarni yeching va paxtadan nima ishlab chiqarilishini bilib oling.



A	3 + 7	M	10 – 4
O	40 + 50	Q	80 – 30
I	6 + 14	G	20 – 8
Y	23 + 16	L	76 – 35
		Z	34 + 12

6. Toshkent shahridan Chirchiq shahriga borish uchun 6 l benzin sarflanadi. Haydovchi Toshkentdan Chirchiqqa borib, ortga qaytib kelish uchun qancha benzin sarflaydi?

7. Misollarni yeching.

26 + 30	13 + 15	32 + 14
19 + 60	16 + 42	50 + 12


8. Bidonda 12 l paxta yog‘i bor edi. Agar bidondan 6 l yog‘ quyib olinsa, unda qancha yog‘ qoladi?

Tayanch so‘zlar:

hajm
litr



Qoida bo‘yicha bo‘yang.



1. Har bir juftlikdagi idishlarning hajmini taqqoslang. Qaysi juftlikka aniq javob berib bo‘lmaydi?





Faqat bir turdagi kattaliklarni taqqoslash mumkin.

2. Taqqoslang va xatolarni toping.

25 ℓ □ 52 ℓ	12 ℓ + 1 kg □ 13 ℓ
15 kg □ 12 kg	20 kg + 2 ℓ □ 20 kg

3. Oshxonada har xil retseptlar bo‘yicha ichimliklar tayyorlanadi. Har qaysi holatda necha litr ichimlik hosil bo‘ladi?

Suv (l)	Meva sharbati (l)	Shakar qiyomi (l)	Ichimlikning umumiy hajmi (l)
9	4	2	
9	5	3	
9	2	8	

4. Bochkaga 50 l suv sig'adi. To'la bochkadan 30 l suv quyib olindi. Bochkada necha litr suv qoldi?

5. Hisoblang.


5 ℓ + 11 ℓ =	60 ℓ − 30 ℓ =
14 ℓ + 25 ℓ =	56 ℓ − 22 ℓ =
70 ℓ + 17 ℓ =	16 ℓ − 9 ℓ =

6. Rasmdan foydalanib, bo'sh kataklarni to'ldiring. I – idish. B va S harflari ortida qanday so'zlar yashiringan?

B + S = I	S + B = □	I − □ = S	□ − S = □
4 + 5 = 9	5 + □ = □	9 − □ = □	□ − □ = □



7. Sharbat quyilgan stakanlarni shunday bo'yangki, ularning tartibi takrorlanmasin.



8. Alisher uchun 28 litr hajmli akvarium sotib olindi. U akvariumga 16 litr suv quydi. Alisher yana necha litr suv quyishi kerak?

9. Hisoblang.


17 l + 42 l	32 kg + 65 kg	71 cm + 15 cm
62 l − 30 l	57 kg − 41 kg	29 cm − 13 cm

Tayanch so‘zlar:

uzunlik (cm, dm)
massa (kg)
hajm (l)



Namuna bo‘yicha bo‘yang.



1. Amallarning noma’lum komponentini topib, jadvalni to‘ldiring. Darsda nima haqida so‘z boradi?

A	$14+\square=17$	T	$17-\square=12$
K	$\square+10=18$	K	$\square+7=14$
A	$15+\square=19$	T	$13+15-\square=27$
I	$18-\square=18$	L	$11+16+\square=29$

8	4	1	5	3	2	0	7



Kattalik – predmetning o‘lchash mumkin bo‘lgan xossasi.

Uzunlik, massa va hajm – kattaliklar.

2. Oshpaz osh tayyorlash uchun 5 kg go‘sht, shuncha miqdorda guruch, 2 kg piyoz va 3 kg sabzi tayyorladi. Mahsulotlarning umumiy massasini toping.










☐ kg ☐ kg ☐ kg ☐ kg

3. Hisoblang.

41 ℓ + 51 ℓ =	67 cm − 47 cm =
25 kg + 23 kg =	86 dm − 25 dm =

4. Rasmni qayta chizing.



5. Chelakning hajmi 10 l, kastrulkaning hajmi 5 l, bankaning hajmi 3 l. Suv to'ldirilgan chelakdan 2 l suvni kastrulkaga qanday quyib olish mumkin? Suvni yerga to'kib tashlash va boshqa idishlardan foydalanish mumkin emas.








6. Kattaliklarni taqqoslang.

25 l + 12 l ☐ 34 l − 11 l	46 kg + 12 kg ☐ 24 kg + 35 kg
12 l + 34 l ☐ 57 l − 12 l	34 kg + 62 kg ☐ 43 kg + 26 kg

7. Sxema bo'yicha masala tuzing. Uning yechimini yozing.




Tayanch so‘zlar:

uzunlik (cm, dm)
massa (kg)
hajm (l)



Kubiklar sonini toping.




1. Kattaliklarni taqqoslang. Nimani payqadingiz?



2 kg ☐ 5 kg



3 l ☐ 1 l



30 cm ☐ 3 dm

2. Amallarni bajaring va kattaliklar uchun qo‘shishning o‘rin almashish qonuniga qanchalik rioya qilinganini tekshiring.

23 kg + 15 kg =	15 kg + 23 kg =
11 l + 68 l =	68 l + 11 l =
14 cm + 25 cm =	25 cm + 14 cm =
78 dm + 21 dm =	21 dm + 78 dm =

3. Qandolatchi tort pishirish uchun 2 kg shakar, 4 kg un va 2 kg sariyog‘ni aralashtirdi. Qancha aralashma hosil bo‘ldi?

4. Sonlarni xonalar bo‘yicha yoying.

13 = ☐ o‘nl. ☐ birl.	42 = ☐ o‘nl. ☐ birl.
11 = ☐ o‘nl. ☐ birl.	67 = ☐ o‘nl. ☐ birl.
56 = ☐ o‘nl. ☐ birl.	99 = ☐ o‘nl. ☐ birl.

5. Tushirib qoldirilgan so‘zlarni yozing.





grafin finjondan katta
finjon grafindan ☐



jo‘va pichoqdan uzun
pichoq jo‘vadan ☐

6. Natijani sxema bo‘yicha toping.





Sxemalardan biriga doir ifoda yozing.

7. Rasm bo‘yicha nima og‘ir va nima yengilligini aniqlang. Taqqoslang.

O ☐ N
3B ☐ O
2N ☐ 2O
NO ☐ N



8. Tort tayyorlash uchun 16 kg, pirog tayyorlash uchun esa undan 4 kg kam ho‘l meva kerak bo‘ldi. Pirog tayyorlash uchun necha kilogramm ho‘l meva ishlatilgan?

9. Hisoblang.

(76 + 13) – 5 (78 – 44) + 2 (92 + 7) – 6 (59 – 3) – 5

Tayanch so‘zlar:

uzunlik (cm, dm)
massa (kg)
hajm (l)




Rasmning ikkinchi yarmini chizing.



1. Jadvalni to‘ldiring.

Qo‘shiluvchi	60 l		24 kg	50 cm
Qo‘shiluvchi	30 l	8 dm	12 kg	
Yig‘indi		48 dm		57 cm

2. Rasmda berilgan ma’lumotlar asosida masala tuzing va uni yeching.



3. Natijani qulay usul bilan hisoblang.

15 ℓ + 26 ℓ + 5 ℓ =
6 ℓ + 18 ℓ + 14 ℓ =
19 ℓ + 23 ℓ + 1 ℓ =
27 ℓ + 8 ℓ + 2 ℓ =

4. Masalani yeching.


– 12 kg


– ?, 3 kg ko‘p

? kg

5. Ifodalarning qiymatlarini hisoblang va qiymatlarga mos harflardan quyidagilar nomini hosil qiling.






	12 + 23
	30 + 40
	7 + 7
	90 – 20
	39 – 2

	65 – 15
	20 + 22
	43 + 23
	20 – 6
	58 – 16
	12 + 10

	99 – 30
	97 – 27
	64 + 2
	50 + 40
	10 + 60
	35 + 4

	9 + 9
	31 + 14
	42 + 13
	30 + 41
	29 – 1

A 28	F 50	M 37	P 18
B 35	I 45	N 66	Q 39
D 14	K 22	O 70	S 55
T 71	U 42	Y 69	G‘ 90

6. To‘g‘ri to‘rtburchaklarni ikkita bir xil kvadrat, uchburchak, to‘g‘ri to‘rtburchaklarga bo‘ling.

7. Hisoblang.

67 + (24 – 13) 56 – (42 + 13) 30 + (80 – 60)

8. Berilgan shart bo‘yicha masala tuzing va uni yeching.

Birinchi yashikda – 10 kg
Ikkinchi yashikda – ?, birinchi yashikdagidan 8 kg kam

Tayanch so‘zlar:

masalalar
ifodalar
hajm



Rasmdagi shakllarni sanang.



□ ____
△ ____
○ ____

1. a) 25 va 43 sonlari yig‘indisini toping.
b) 80 va 60 sonlari ayirmasini toping.
d) 67 ni 31 taga orttiring.
e) 92 ni 41 taga kamaytiring.
f) Men bir son o‘yladim, unga 33 sonini qo‘shdim va 76 sonini hosil qildim. Men qanday sonni o‘yladim?

2. Dalada 12 ta, polizda esa 8 ta ariquti turibdi. Yana bog‘da ham bir nechta ariquti bor. Jami ariqutilar soni 27 ta bo‘lsa, bog‘da nechta ariquti bor?



12 8 ?


27

3. Vinni-Puxning shkafida 15 ta tog‘ asali, 12 ta gul asali solingan va 2 ta bo‘sh kuvacha turibdi. Quyidagi ifodalar nimani anglatadi?

15 + 12 15 + 12 + 2 (15 + 12) – 2

4. Bochkada asal bor edi. Vinni-Pux asalning 5 kilogrammini yedi. Boyqushga Vinni-Pux yeganidan 3 kilogramm kam asal qoldi. Bochkada qancha asal bo'lgan?

5. Yo'lak bo'ylab yuring va hisoblashlarni bajaring. Natijada 9 soni hosil bo'lishi rostmi?



6. Komron tug'ilgan kunida sinfdoshlarini shirinliklar bilan mehmon qildi. Lola hammadan kam yedi, Botir esa Komrondan kam yedi. Davron hammadan ko'p yedi. Ularning ismlarini yegan shirinliklari miqdorining ortib borishi tartibida yozib chiqing.

kam ——————————→ ko'p

7. Ifodalarni hisoblang va ularning qiymatlarini taqqoslang.

$17 + (28 - 26) \square (85 - 32) + 5$

$18 + (32 - 21) \square 15 + (57 - 43)$

8. Masala tuzing. Uning yechimi va javobini yozing.


20 l


?, 3 l kam

43–44-darslar. 3-nazorat ishi. Xatolar ustida ishlash
45-dars. O'yin-dars

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Mundarija

Muqaddima ... 3
1-dars. Masalaning tarkibi ... 4
2-dars. Masalani yechish algoritmi ... 6
3-dars. Sodda masalalar ... 8
4-dars. Masala shartining berilish usullari ... 10
5-dars. Masalalar yechish ... 12
6-dars. Butunni topishga doir masalalar ... 14
7-dars. Butunni topishga doir masalalar ... 16
8-dars. Butunni topishga doir masalalar ... 18
9-dars. Qismlarni topishga doir masalalar ... 20
10-dars. Qismlarni topishga doir masalalar ... 22
11-dars. Masalalar yechish ... 24
12–13-darslar. 1-nazorat ishi. Xatolar ustida ishlash
14-dars. Sonni orttirish va kamaytirishga doir masalalar ... 26
15-dars. Sonni orttirish va kamaytirishga doir masalalar ... 28
16-dars. Sonni orttirish va kamaytirishga doir masalalar ... 30
17-dars. Sonni orttirish va kamaytirishga doir masalalar ... 32
18-dars. Taqqoslashga doir masalalar ... 34
19-dars. Taqqoslashga doir masalalar ... 36
20-dars. Taqqoslashga doir masalalar ... 38
21-dars. Taqqoslashga doir masalalar ... 40
22-dars. Murakkab masalalar yechish ... 42
23-dars. Shartni yetishmayotgan ma'lumotlar bilan to'ldirish ... 44

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

24-dars. Nostandart masalalar 46
25-dars. Ikki amalli masalalar yechish 48
26-dars. Murakkab masalalar 50
27–28-darslar. 2-nazorat ishi. Xatolar ustida ishlash.
28-dars. O‘yin-dars
30-dars. Uzunlik. Santimetr 52
31-dars. Kesmalarni o‘lchash 54
32-dars. Santimetr. Detsimetr 56
33-dars. Detsimetr bilan santimetr orasidagi o‘zaro bog‘lanish 58
34-dars. Masalalar yechish 60
35-dars. Massa va massa birliklari 62
36-dars. Massa va massa birliklari 64
37-dars. Hajm va hajm birliklari 66
38-dars. Hajm va hajm birliklari 68
39-dars. Kattaliklar: uzunlik, massa, hajm 70
40-dars. Kattaliklar va ularning xossalari 72
41-dars. Kattaliklar va ularning xossalari 74
42-dars. Masalalar yechish 76
43–44-darslar. 3-nazorat ishi. Xatolar ustida ishlash.
45-dars. O‘yin-dars

Repyova I. V.
R 42 **Matematika.** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik, III qism / I. V. Repyova. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2024. – 80 b.

ISBN 978-9943-9706-5-6

UO'K 51(075.3)
KBK 22.1ya72

Irina Vladimirovna Repyova

Matematika
1-sinf
III qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik
Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashr

"Novda Edutainment"
Toshkent – 2024

Muharrirlar:	*N. Gaipov, M. Mirsalikov, A. Ziyadov*
Badiiy muharrir	*A. Sobitov*
Musahhih	*Z. Gulyamova*
Rassomlar:	*M. Sulaymonova, E. Aganesyan*
Kompyuterda sahifalovchi	*F. Xasanova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 080756, 12.05.2023-yilda berilgan.
18.10.2024-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60×84 $^1/_8$. "Arial" garniturasi. Kegli 16. Ofset bosma usulida bosildi.
Mashinada yengil bo'rlangan MFC 80 gr/m^2 qog'oz.
Shartli b.t. 9,3. Hisob-nashriyot t. 5,4. Adadi 608 228.
Buyurtma raqami 24-64.

"Novda Edutainment" MCHJ.
Toshkent sh. Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko'chasi, 21-uy.

"O'zbekiston" NMIUda chop etildi.
Toshkent sh. A. Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Amallar tartibi

qavssiz

① ②
12 – 7 + 5 = 5 + 5 = 10
5

qavsli

② ①
12 – (7 + 5) = 12 – 12 = 0
12

Sonlar ustida amallar bajarish

Ikki xonali sonlarni qo‘shish

o‘nliklar
17 + 21 = 38
birliklar

Ikki xonali sonlarni ayirish

o‘nliklar
29 – 14 = 15
birliklar

Kattaliklar

uzunlik



1 dm = 10 cm
santimetr (cm)
detsimetr (dm)

massa



1 kg
kilogramm (kg)

hajm



1 l
litr (l)

Qo‘shish

xonadan o‘tib

7 + 4 = (7 + 3) + 1 = 10 + 1 = 11
3 1 10



Ayirish

xonadan o‘tib

15 – 7 = (15 – 5) – 2 = 10 – 2 = 8
5 2 10

